


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor  
Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belorusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

## FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна  
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В  
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна  
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В  
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi  
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA  
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov  
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI  
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich  
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY  
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

## IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna  
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna  
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI  
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi  
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

## PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna  
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI  
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM  
MISOLIDA).....54

## TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:  
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi  
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

|                                                                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich</b><br>TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA<br>O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....                            | 68  |
| <b>4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna</b><br>QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV<br>BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....                     | 73  |
| <b>5. Muborak Madrimovna Matyakubova</b><br>XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....                                                                        | 78  |
| <b>6. Xayitov Shodmon Ahmadovich</b><br>MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI<br>(MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....                        | 83  |
| <b>7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna</b><br>QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI<br>O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....                | 89  |
| <b>8. Durdona Jamolova</b><br>BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA<br>MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....                                          | 93  |
| <b>9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li</b><br>O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK<br>JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING<br>O'RNI..... | 98  |
| <b>10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna</b><br>QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI,<br>O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....                                              | 103 |
| <b>11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov</b><br>YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA<br>HAMKORLIK.....                                                      | 107 |
| <b>12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich</b><br>XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI<br>FAOLIYATI.....                                                          | 111 |
| <b>13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna</b><br>IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR<br>TAQDIRI.....                                                                 | 115 |
| <b>14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi</b><br>XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....                                                                            | 120 |
| <b>15. Сулайманова Сохиба Баходировна</b><br>СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАҢГАЛАРИ.....                                                                                                   | 125 |
| <b>16. Bahridil Ergasheva</b><br>O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK<br>YONDOSHUV.....                                                                      | 129 |



**Bahridil Ergasheva-**

O'zbekiston Fanlar akademiyasi

Tarix instituti tayanch doktoranti

E-mail: bahridilergasheva5@gmail.com

**O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-  
ETNOGRAFIK YONDOSHUV**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15363023>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada o'zbek xalqining milliy tarbiyaviy qarashlari etnografik materiallar asosida chuqur o'rganiladi. Tadqiqot davomida bola tarbiyasiga oid qarashning tarixiy shakllanishi, oiladagi rollar taqsimoti, ijtimoiylashuvi, mehnatga o'rgatish, axloqiy-etik qadriyatlarni singdirish kabi jarayonlar orqali xalqning tarbiyaga oid qarashlari va ularning amaliy ifodalari etnografik kuzatuvlar, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar va kundalik hayot namunalariga tayangan holda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** milliy tarbiya, o'zbek xalqi, etnografiya, urf-odatlar, bola tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, ijtimoiylashuv, marosimlar, an'anaviy.

**Баҳридил Эргашева-**

Докторант института Истории

Академии наук Узбекистана

**МЕТОДЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ У УЗБЕКСКОГО НАРОДА: ИСТОРИКО-  
ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ ПОДХОД****АННОТАЦИЯ**

В данной статье глубоко изучаются национальные воспитательные взгляды узбекского народа на основе этнографических материалов. В ходе исследования анализируются историческое формирование взглядов на воспитание детей, распределение ролей в семье, процессы социализации, приобщение к труду и усвоение нравственно-этических ценностей. Эти аспекты воспитания рассматриваются через призму этнографических наблюдений, устного народного творчества, обычаев, обрядов и примеров повседневной жизни, что позволяет раскрыть практические проявления народных педагогических представлений.

**Ключевые слова:** национальное воспитание, узбекский народ, этнография, обычаи, воспитание детей, трудовое воспитание, нравственное воспитание, социализация, обряды, традиционный.

**Bahridil Ergasheva –**

PhD student at the Institute of History,

Academy of Sciences of Uzbekistan

## CHILD-REARING METHODS OF THE UZBEK PEOPLE: A HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC APPROACH

### ANNOTATION

This article presents an in-depth study of the national educational views of the Uzbek people based on ethnographic materials. The research analyzes the historical development of child-rearing concepts, the distribution of roles within the family, socialization, labor training, and the inculcation of moral and ethical values. These aspects of education are examined through ethnographic observations, oral folklore, customs, rituals, and examples from everyday life, revealing the practical manifestations of the people's pedagogical outlook.

**Keywords:** national education, Uzbek people, ethnography, customs, child upbringing, labor education, moral education, socialization, rituals, traditional.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI

Har bir tug'ilgan farzand unib o'sar ekan avvalo u o'z tug'ilgan oilasiga, keyinchalik astasekin jamiyatga moslashib boradi. Bu jarayon xulq-atvor qobilyati sifatida shakllanib, uning salbiy yoki ijobiy natijasi oiladagi muhitga bevosita bog'liqdir. Shaxs jamiyatning a'zosi bo'lib tug'ilmaydi balki u ijtimoiylikka moyil bo'lib tug'iladi va jamiyat a'zosiga aylanadi [7.B.149]. Ijtimoiylashuv ya'ni moslashuv – individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayonining natijasidir [20]. Jamiyat madaniyatini o'zlashtirish, o'rgatish jarayoni ya'ni ijtimoiylashlashuv tarbiya usullari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon o'zbek xalqining farzand tarbiyasiga oid qarashlarida ming yillar davomida shakllanib kelgan bo'lib, bolalarning oiladagi o'zaro munosabatlardan tortib to ularning keyingi hayot bosqichlariga tayyorlashni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlarda ulaning jamiyatdagi axloqiy, estetik, mehnat va ijtimoiy qadriyatlarni egallashi muhim hisoblanadi. Aytib o'tish kerakki, bu bosqichlar albatta xalqimizning milliy tarbiya usullariga asoslangan holda amalga oshirilib, to farzand voyaga yetguniga qadar, yoki undan ham keyin davom etadi. Bu jihatdan ajdodlarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan tarbiya usullarini, va ularni hayotga yana qaytadan tadbqiq etish, o'zbek xalqining milliy o'zligini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Aytib o'tish joizki, ushbu maqola etnografik tadqiqot doirasiga kirib, unda o'zbek oilalarida qo'llanadigan tarbiya usullarini ildizlarini arxeologik ma'lumotlar, tarixiy manbalar, arxiv materiallari va dala kuzatuvlari asosida eng qadimdan to hozirgi kunga qadar bo'lgan ijtimoi-madaniy o'zgarishlarni yoritishga qaratilgandir. Unda asosan, Sopollitepa, Jarqo'ton arxeologik yodgorliklaridan topilgan topilmalar asosida farzand tarbiyasiga oid fikrlar tahlil qilindi. O'rta chog'lardagi Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Yusuf Xos Xojib, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalar asarlariga murojaat qilindi va farzand tarbiyasiga oid bo'lgan ma'lumotlar o'rganildi. Shuningdek, qaramlik davriga oid gazeta va jurnallardagi maqolalar, og'zaki tarixdan unumli foydalanildi. Undagi ibo, hayo, oilaning ahamiyati, ijtimoiylashuv kabi tushunchalar keng yoritildi.

O'zbek xalqining milliy tarbiyaga oid usullari va qarashlari hamisha muhim hisoblanib kelingan mavzulardan biri. Ushbu yo'nalishda etnograf, pedagog, siyosatchi olimlar turli tadqiqotlarni amalga oshirgan. Avvalo o'rta chog'larda yashab, faoliyat yuritgan allomalar Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojibning asarlarida ahloqiy, diniy, jismoniy va mehnat tarbiyasiga alohida uyrig' berib o'tilganini aytib o'tish joiz. Ushbu maqolada bevosita ushbu mualliflarning yozgan asarlariga murojaat qilindi. Shuningdek, A.Asqarov, Sh.Shaydullayevlar o'z tadqiqotlarida mavzuning arxeologik taraflarini yoritib bergan. Abdulhalim Oflaz esa pedagogik jihatdan tavsiflab, turli metod va usullar haqida yozgan. A.Avloniy, A.Fitratlar esa milliy tarbiyaning evrilish jarayonlari haqida tadqiqotlar olib borgan. Ammo bu masalaning arxeologik manbalar, qadimiy yozma yodgorliklar, diniy va badiiy adabiyotlar kontekstida tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganilishi hali to'liq amalga oshmagan. Shu boisdan ushbu maqola mavzuning etnografik, tarixiy va madaniy ildizlarini chuqur yoritish va yangicha yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan.



## TADQIQOT NATIJALARI

Avvalo tarbiya nima ekani, u haqida tarixiy manbalarda qanday ta'riflar berilgani haqida muloxaza yuritsak. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, ahloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. [19]. Tarbiyadan ko'zlangan maqsad, bolada insoniy xulq-atvorni, mehnatsevarlikni, ijtimoiy mas'uliyat va o'z xalqining ma'naviy qadriyatlariga sodiqlikni shakllantirishdan iboratdir. Garchi, tarbiya — mavhum tushuncha bo'lsada, komil insonni shakllantiruvchi asosiy xatti harakat va bolani ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi jarayondir. Tarbiya madaniyatni o'rgatish, shaxslarga kerakli xatti-harakatlarni o'rgatish faoliyati sifatida ta'riflanadi. Tor ma'noda Bolani shakllantirish, keng ma'noda esa jamiyatni barpo etish jarayonidir [1.B.389]. Tarbiya jarayoni nafaqat shaxsiy balki, ommaviy faoliyat ham hisoblanib, uning mukammalligi oilaga, jamiyatga katta ijobiy ta'sir qiladi. Hadislarga ko'ra bolaning otasidan oladiga eng katta me'rosi ismi va odobidir [1.B.389]. Demak, bolaga beriladigan ism va odob-ahloqi uning uchun qilinadigan eng yaxshi ishlardan biridir.

Arxeologik manbalar, qoyatosh suratlari orqali biz qadimgi ajdodlarimiz hayotini, kundalik turmushini, ijtimoiy muhitini va ma'lum ma'noda avlodlarga berilgan tarbiya jarayonini ham anglashimiz, o'zganishimiz mumkin. Qoyatosh suratlari yoki haykallar nafaqat san'atning ilk ko'rinishi balki ularning qobilyatiga baho beruvchi haqiqiy san'at asarlaridir [6.B.278]. Masalan, hayvonlarning zaif tomonlarini ko'rsatish, tuzoq qo'yish usullarini namoyish etish kabi elementlar shunday ma'noni berishi mumkin. Masalan Sarmishsoydagi rasmlar mil.avv. 15,000-10,000 yillarga borib taqaladi va undagi ov manzalari ijtimoiy struktura va marosimlar haqida ma'lumot beradi [5.B.162]. Qoyatoshlardagi turli marosimlar, raqslar va diniy ko'rinishlar, ularda turli yoshdagi odamlar ishtirok etayotgani tasvirlari ham ijtimoiylashuv va tarbiyaning bir qismi – ya'ni jamiyatning madaniy, diniy va ijtimoiy normalarini yoshlarga o'rgatish jarayoni sifatida qaralishi mumkin. Bu marosimlar orqali qabila qadriyatlari, afsonalar, ijtimoiy o'rinlar va rollar haqidagi tasavvurlar shakllangan. Shuningdek, mehnat tarbiyasi ushbu davrda alohida ahamiyatga ega bo'lganini bildiradi. A.Asqarov o'zining “Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана” nomli kitobida “Sopoli majmuasidagi qiziqarli va o'ziga xos narsalar qatorida odam va hayvonlarning loydan va toshdan yasalgan haykalchalari, yigiruvchi va naqshli ignalar, taroq va shpatellar, marjon va tumorlar, bronza barglar va ignalar, avj va ignalar, turli tosh qurol va qurollar va boshqalar [10.B.99]. topilganini qayd etib o'tadi. Ushbu ma'lumotlardan aholi hayotida hunarmandchilik muhim o'rin tutganini, shu bilan birgalikda soxa sifatida rivojlanganini ta'kidlash joiz. Bunda albatta ustoz shogird an'anasining tarbiyaviy jihatlari ko'zga tashlanadi.

Tarbiya qanday jarayon va tushuncha ekani yozma manbalar orqali ko'proq va aniq ma'lumotlar olishimiz mumkin. Masalan, Avestoda “Yomon tarbiyachi o'z ta'limi bilan ilohiy so'zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi [14.B.14]. “Ey Mazda! Tarbiya qiluvchilaring uchun atalgan, poyonsiz mehr, muhabbatingni ato ayla [14.B.29]” deya Mazdaga xitob etiladi. Demak, ushbu manbaga asosan tarbiya tiriklik idroki hisoblanib, yomon tarbiyachidan saqlash, yaxshi tarbiya qiluvchilarni esa mehr va qadr bilan siylashini so'rab iltijo qilinadi.

Qadim sog'diylarda oila va oilaviy qadriyatlar juda muhim hisoblangan. Oilada ota-onaning xurmati yuqori bo'lib, ularga hamisha xurmat ko'rsatilgan. Masalan, qadimgi sog'd nomalariga ko'ra turmushga chiqqan qiz o'z onasiga xat yozar ekan unga “O'zining qizi, ozod ayol Mi(wnay)dan aziz (onasi) Chatisga, baraka va hurmat. Sizni sog'lom va xotirjam ko'rgan kishi uchun yaxshi kun bo'lardi. va (men uchun) o'sha kun sizni sog'-salomat ko'rishimiz uchun eng yaxshi kun bo'lardi. Men sizni ko'rishni juda xohlayman [21]” mazmunida so'zlarni yozadi. Ushbu noma turmushga chiqqan qizning onasiga maktubi bo'lib, uning muhim jihati onasiga bo'lgan xurmati va sog'inchi hisoblanadi. O'zbek oilasida onalar hamisha farzandlari uchun eng birinchi dil izxori qilinadigan insondir. Hechqachon onadan oldin otaga murojaat qilinmaydi, balki ona orqali otasiga barcha gaplari yetkaziladi. Ushbu ma'lumotlar ahloqiy tarbiyaning munosabatlarda naqadar muhim ekanini ko'rsatadi.

Qur'oni Karimning "Al Isro" surasi, 24 oyatida "Ular uchun mehribonlik bilan xorlik qanotini past tut-hokisor bo'l va "Parvardigorim, meni go'daklik chog'imdan tarbiyalab-o'stirganlaridek, sen ham ularga raxm-shafqat qilgin" deb haqlariga duo qil" deb aytiladi. Demak tarbiya – insonni voyaga yetkazish jarayoni bo'lib, bunda ota-onalarning xizmatlari alohida bo'lishi aytiladi. Ota-onani xurmatlash, e'zozlash masalasida hech bir tuzum yoki tarbiya vositasi Islomga teng ham yaqin ham kelolmaydi [18.B.214]. Yaqinlarini e'zozlash va hurmat qilish masalasida islom dini benazir bo'lib, Qur'on oyatlari buni tasdiqlaydi. Tarbiya jarayoni juda muhim ekanligi, saxovatli, fazilatli kishilarning tarbiya qilgan [13.B.295]. insonlarning ham kamoli ularga mos ravishda bo'lishi haqida hadisi shariflarda ham keltirib o'tilgan. Xalqimiz orasida bolaning odobini ko'rsatuvchi eng muhim jihati hisoblangan kattalarga xurmat, kichikka izzat ko'rsatish, ahloqiy tarbiyaning yorqin na'munasidir.

Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida keltirilishicha, "Tarbiya oqillikni vujudga keltiradi. Kishining tarbiyasi bo'lmasa, u bema'nilikni xush ko'radi [3.B.74]". Demak, tarbiya insondagi ma'lum ijobiy sifatlarni shakllanishiga, bu sifatlarni orqali esa avvalo o'ziga keyingi o'rinda atrofdagilarga, jamiyatga nafi tegadigan bir shaxsning shakllanishida muhim vazifa bajaradi.

Bu haqida Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham yuqoridagi fikrlarni to'ldiruvchi g'oyalar keltirilgan bo'lib, "Agar sen xoh unga adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqqatlarining o'zi unga o'rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur [17.B.112]" deyiladi. Ya'ni bolaga odob-ahloq qoidalari, jamiyatdagi o'zaro munosabatlar o'rgatilmasa, turmush mashaqqatlariga duch kelishiga sabab bo'ladi va u vaziyatda qiyinchilik bilan o'rganishga majbur bo'lishini ko'zda tutadi. Eng asosiysi bu ota-onaning vazifasi ekaniga alohida urg'u berib o'tiladi. 11-yuzyillikning 82-83 yillarida yozilgan bo'lsada, sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ahloqiy-ta'limiy asar [22] bo'lib ko'plab pand-nasixatlardan iboratdir va hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig'" asarida farzand tarbiyasi tarbiyasi og'ir yumush ekanligi va hamisha birdek ushbu masala ota-onaning nazorati ostida turishi haqida so'z bo'radi. Ushbu asarda ham oilaning farzand tarbiyasidagi ahamiyati alohida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, u bir kemaga qiyoslanadi va shunday deyiladi "oila qurgan kishi kemanding ichiga tushgan odamga qiyos: kema dengiz o'rtasiga yo'l oladi. O'g'il-qizning tug'ilishi bu kemani boshqarishni qiyinlashtiradi. Endi bu kemachidan kuch qudrat va mahorat talab etiladi [9.B.104]". Turmush qurgach erkak va ayolda mas'uliyat bir qadar ortsa, farzandli bo'lgach esa, ota-ona zimmasiga avlodlarini porloq kelajaklari uchun yanada ko'proq ter to'kishi kerakligi aytib o'tiladi. Darhaqiqat, ota-ona farzand hayotidagi juda muhim shaxs bo'lib ular nafaqat oziq ovqat bilan ta'minlash balki, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, ahloqli, ma'na yetuk insonlar bo'lishi uchun ham mas'uldir. Bu haqida tibbiyot otasi hisoblangan Ibn Sino ham bir qancha fikrlar bildirib o'tgan.

Ibn Sino asarlarida ham farzand tarbiyasiga oid bir qancha ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Xususan, "Tib qonunlari" asarining birinchi jildida farzand tarbiyasiga hali u tug'ilmasidan kirishishga ishorat beriladi. Avvalo xomilador ayolning bu davrida uni ortiqcha zo'riqtirmaslik, kayfiyati yaxshi bo'lishi bolaning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir etishi yozilgan. Bu haqida o'zbek xalqida "Xomilador ayol etingni so'rasa kesib ber" degan gap bor. Buning zahirida xomilador ayolga bo'lgan e'tibor, farzandiga bo'lgan e'tibor ma'nosida tushuniladi. Shuningdek, bola tug'ilgach unga qanday parvarish lozimligi haqida, ona suti bilan boqilishi, agar onaning bunga qurbi yetmasa sut bilan boquvchi ayol topilishi lozimligi, emizuvchi ayolning esa 25-35 yoshlar orasida, toza ozoda bo'lishi kerakligi aytilgan [15.B.45-78].

Shuningdek, badan tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish kerakligi, voyaga yetish va o'smirlik davrida og'ir jismoniy harakat qilmasligi ta'kidlanadi. Olti yoshdan unga asta-sekinlik bilan ta'limga yo'naltirish kerakligi va bunda uni birdaniga kitobga bog'lamaslik kerakligi aytiladi [15.B.89-90]. Ibn Sino "Tib qonunlari"da badantarbiyaning turlari haqida gap ketadi. Badantarbiyaning turlariga kelsak, ular quyidagi turlarga bo'ladi: o'zaro tortishish, musht bilan turtishish, yoydan o'q otish, tez yurish, nayza otish, yuqoridagi bir narsaga irg'ib osilish, bir oyog'ida sakrash, qilichbozlik va nayzabozlik, otda yurish, ikki qo'lini silkitish, bu vaqtda odam

oyoq uchlarida turib, qo'llarini oldga va orqaga cho'zib tez harakat qiladi. Bular tez harakatlar jumlasidandir [15.B.93]. Jismoniy mashqlarning engil va engil shakllariga tebranish, belanchakda o'tirish, qayiq yoki kemada yurish kiradi. Kuchliroq harakatlar uchun olov va tuyalarga minish aytiladi [15.B.93].

Ibn Sino asarlarida ham farzand tarbiyasiga oid bir qancha ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Xususan, "Tib qonunlari" asarining birinchi jildida farzand tarbiyasiga hali u tug'ilmasidan kirishishga ishorat beriladi. Avvalo xomilador ayolning bu davrida uni ortiqcha zo'riqtirmaslik, kayfiyati yaxshi bo'lishi bolaning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir etishi yozilgan. Bu haqida o'zbek xalqida "Xomilador ayol etingni so'rasa kesib ber" degan gap bor. Buning zahirida xomilador ayolga bo'lgan e'tibor, farzandiga bo'lgan e'tibor ma'nosida tushuniladi. Shuningdek, bola tug'ilgach unga qanday parvarish lozimligi haqida, ona suti bilan boqilishi, agar onaning bunga qurbi yetmasa sut bilan boquvchi ayol topilishi lozimligi, emizuvchi ayolning esa 25-35 yoshlar orasida, toza ozoda bo'lishi kerakligi aytilgan [15.B.45-78].

Shuningdek badan tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish kerakligi, voyaga yetish va o'smirlik davrida og'ir jismoniy harakat qilmasligi ta'kidlanadi. Olti yoshdan unga asta-sekinlik bilan ta'limga yo'naltirish kerakligi va bunda uni birdaniga kitobga bog'lamaslik kerakligi aytiladi [15.B.89-90]. Ibn Sino "Tib qonunlari"da badantarbiyaning turlari haqida gap ketadi. Badantarbiyaning turlariga kelsak, ular quyidagi turlarga bo'ladi: o'zaro tortishish, musht bilan turtishish, yoydan o'q otish, tez yurish, nayza otish, yuqoridagi bir narsaga igr'ib osilish, bir oyog'ida sakrash, qilichbozlik va nayzabozlik, otda yurish, ikki qo'lini silkitish, bu vaqtda odam oyoq uchlarida turib, qo'llarini oldga va orqaga cho'zib tez harakat qiladi. Bular tez harakatlar jumlasidandir [15.B.93]. Jismoniy mashqlarning yengil va shakllariga tebranish, belanchakda o'tirish, qayiq yoki kemada yurish kiradi. Kuchliroq harakatlar uchun olov va tuyalarga minish aytiladi [15.B.93].

Husayn Voiz Koshifiy "Ahloqi muhsiniy" asarida inson ruhini tarbiyalash orqali uni go'zal hamda xulq-atvorli, fazilatli qilib yetishtirish mumkin [4.B.16] ligi haqida so'z boradi. Unda oq rangining pokiza ekaniga ishora berib, ona suti ham oq va o'sha paytdan bolaga parvarish va tarbiya boshlanadi [4.B.59] deb xulosa beradi.

Insonning yaratilishidan uning o'z fitrati bilan tug'ilishi va uni rivojlanishiga Ahmad Donish "Navodir ul vaqoe" asarida shunday fikrlar yozib o'tadi "Inson ham tabiatdagi madanlarga o'xshaydi. Qancha urinmasin aslidan keta olmaydi. Shunga o'xshash inson ham qancha tarbiya ko'rmasin asli yaratilish sifatidan butunlay ajralib keta olmaydi". Albatta insonga bu fitrat otanasidam merosdir. Bu haqida fikrlarni yuqorida sharq allomalarining asarlari orqali tanishdik.

20 yuzyillik boshlaridan o'lkamiz hududida avj olgan jadidchilik harakatining yorqin namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy tarbiya xususida shunday deydi "Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur [11.B.12]". Ota-ona go'yo bir tabibga qiyoslanib, farzand tug'ilgach ilk kunlaridanoq unga o'rgatiladigan odob-ahloq qoidalari davoga tenglanmoqda.

Abdurauf Fitrat esa tarbiya xususida avlodni tarbiyalash insoniyatning buyuk xizmatlaridan biri ekanini ta'kidlaydi. U "Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'ynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki, bad axloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi [2.B.29]" deya bu jarayon insoniyat uchun naqadar ahamiyati yuqori ekani, insoniyat kelajagi tarbiyaga bog'liq ekanini ko'rsatib o'tadi.

20 yuzyillik boshlaridan o'lkamiz hududida avj olgan jadidchilik harakatining yorqin namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy tarbiya xususida shunday deydi "Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki, tabib

xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur [11.B.12]". Ota-ona go'yo bir tabibga qiyoslanib, farzand tug'ilgach ilk kunlaridanoq unga o'rgatiladigan odob-ahloq qoidalari davoga tenglanmoqda.

Abdurauf Fitrat esa tarbiya xususida avlodni tarbiyalash insoniyatning buyuk xizmatlaridan biri ekanini ta'kidlaydi. U "Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'ynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki, badaxloqbolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi [2.B.29]" deya bu jarayon insoniyat uchun naqadar ahamiyati yuqori ekani, insoniyat kelajagi tarbiyaga bog'liq ekanini ko'rsatib o'tadi.

### XULOSA

Yuqoridagi manbalardagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda tarbiya usullarini quyidagicha tasnifladik.

1. Mehnat tarbiyasi
2. Ahloqiy tarbiya
3. Diniy tarbiya
4. Jismoniy tarbiya
5. Ruhiy tarbiya

Ushbu tarbiya usullari asosan farzandga na'muna ko'rsatish, pand-nasihat, xalq og'zaki ijodi, ma'naviy jazolash va mehnatga jalb etish orqali amalga oshiriladi. Tarbiya — bu insonning rivojlanishida, uning jamiyatga munosabati va o'zligini anglashida ajralmas jarayon bo'lib, nafaqat ilmiy bilim, balki yuksak axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Tarbiya orqali milliy qadriyatlar va axloqiy normalar jamiyat rivojining asosiy poydevorini tashkil etadi. Tarbiya jarayoni asosan bolani ijtimoiylashishi bilan bog'liq. Agar ijtimoiy muhit qancha keng bo'lsa, oilaviy tarbiyaning o'zi kamlik qiladi. Unga ijtimoiy tarbiya usullari ham zarur. Qizlar bilan o'g'il bolalarning hayotida ijtimoiylashuv ikki hil bo'lgani sababli, ayniqsa bizning o'zbek oilalarida ikki jins vakillari orasida ham tarbiyaviy jihatdan farqlar mavjud. Bu asosan qanday hollarda namoyon bo'ladi? Umuman har bir xalq tarbiya borasida o'zi bilgan, ajdodlaridan me'ros qolgan va sinalgan usullardan foydalangan holatni qo'llaydi.

Ho'sh tarbiyani faqat ota-ona yoki atrofdagi insonlar beradimi yoki bu bir umr davom etuvchi jarayonmi? Ma'lum yoshgacha tarbiya yaqinlari tarafidan o'rgatib boriladi keyinchalik inson mustaqil bo'lgan ya'ni voyaga yetgach ham davom etadi. Farqi endi unga kimdir o'rgatmaydi, balki endi o'z xulosalari asosida tarbiyalanib boradi. Bu esa insonni anglash jarayoni bilan bog'liqdir. Chunki, yashamlarini, boshdan kechirganlarini anglab, xulosa qilib, o'ziga o'zi endi tarbiya berib boradi. Demak, tarbiya ham bilim olish kabi beshikdan to qabrga qadar davom etadigan jarayondir. Odam ota-ona tarbiyasi doirasidan chiqar ekan, hayotini davom ettirib, izzat va sharafiga ega bo'lish uchun majburan shu maydonga kiradi, sa'y-harakat qiladi, yo o'z maqsadiga erishadi yoki sharafsiz va xor bo'lib qoladi.

### Iqtiboslar/References/Сноски

1. Abdulhalim Oflaz. Çocuk Eğitimi/Terbiyesi'nde Nebevî Metod . Sosyal Bilimler Dergisi Sayı: Sayı / No. 11, Nisan / April 2017: 389 s.
2. Abdurauf Fitrat. Oila. Toshkent. Cho'lpon. 2013. 29 bet. 143 B
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2004. 160 b.
4. Husayn Vozi. Koshifiy. Ahloqi muhsiniy. Toshkent. 2011. 374 B.
5. M.Meliboyeva. Sarmishsoy va lasko g'orining tarixiy ahamiyati: Qoyatosh rasmlarining umumbashariy tili. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. 161-163 B.
6. Oscar Moro Abadía. Manuel R. Gonzales Morales. Paleolithic Art: A Cultural History. Springer Science+Business Media New York 2013. 24 January 2013. (269–306 pp)

7. Peter L. Berger. Thomas Luckmann. The Social Construction of Reality. New York. Anchor Books. 249 P
8. Qarang. Abdulhalim Oflaz. Çocuk Eğitimi/Terbiyesi'nde Nebevî Metod . Sosyal Bilimler Dergisi Sayı: Sayı / No. 11, Nisan / April 2017: 389 s.
9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg' u bilig'. Toshkent. Cho'lpon. 2007. 199 B
10. А.Аскарлов. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Издательство "фан" Узбекской ССР. Ташкент.1977.230 С
11. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент. Ўқитувчи. 1992. 160 Б
12. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент. Ўқитувчи. 1992. 160 Б
13. Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий. Саҳиҳи Бухорий. Тошкент. Munir. 2021. 715 Б
14. Авесто. Аскар Махкам таржимаси. Тошкент. Шарқ нашриёти. 2001 й. 14 бет.
15. Ибн.Сино. Тиб қонунлари. Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993 й. 1-жилд. 301 Б
16. Ибн.Сино. Тиб қонунлари. Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993 й. 1-жилд. 301 Б
17. Кайковус, «Қобуснома». «Янги аср авлоди», 2016 йил. 223 В
18. Шайх Муҳаммад Содиқ. Тафсири Ҳилол. Тошкент. Hilol nashr. 2017. 1-жуз. 637 Б.
19. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>
20. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy\\_moslashuv](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_moslashuv)
21. <https://depts.washington.edu/silkroad/texts/sogdlet.html>
22. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qobusnoma>

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000